



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 673 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 573 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 062,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 109,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 027,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 035,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 403,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Andijon Viloyati	15 062,4	109,2
Andijon sh.	4 470,8	110,6
Xonobod sh.	111,0	110,9
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	985,3	107,9
Andijon	1 233,4	107,8
Baliqchi	1 276,0	109,0
Bo'ston	224,3	107,4
Buloqboshi	335,7	108,2
Jalaquduq	350,9	107,5
Izboskan	473,7	113,2
Ulug'nor	247,8	108,1
Qo'rg'ontepa	608,9	111,7
Asaka	1 344,0	109,1
Marhamat	516,3	109,2
Shahrixon	1 496,4	108,7
Paxtaobod	585,4	107,9
Xo'jaobod	802,5	104,9


2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (10,6 %), Xonobod shahri (10,9 %), Izboskan (113,2 %), Asaka (9,1 %), Qo'rg'ontepa (11,7 %), Marhamat (9,2 %), tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dynamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **109,2** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 29,7 % bilan 4 470,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 111,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 14 035,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 8,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 25,2 % ga o'sdi va 1 027,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,8 % ulushiga to'g'ri keldi.





CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,2 %), Qo'rg'ontepa (98,9 %), Shahrixon (98,7 %), Xo'jaobod (98,3 %), va Marhamat (98,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (15,1 %), Izboskan (9,1 %), Jalaquduq (7,1 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



Andijon sh.

9 241,1

Marhamat

2 759,3

Xonobod sh.

2 413,0

Shahrixon

4 591,6

Oltinko'l

51 18,5

Paxtaobod

2 792,8

Andijon

4 288,6

Xo'jaobod

6 654,3

Baliqchi

5 888,2

Bo'ston

2 867,7

Buloqboshi

2 184,3

Jalaquduq

1 758,0

Izboskan

1 848,2

Ulug'nor

3 870,4

Qo'rg'ontepa

2 632,5

Asaka

3 770,0

2024- yilning yanvar-avgust oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

4 417,9 ming. so'm (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan (106,9 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (9 241,1 ming so'm), Xo'jaobod (6 654,3 ming so'm) va Baliqchi (5 888,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), mlrd. so'mda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 403,3	113,6
Andijon sh.	571,4	118,8
Xonobod sh.	10,2	307,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	40,4	109,4
Andijon	56,5	90,3
Baliqchi	125,5	102,2
Bo'ston	23,9	114,1
Buloqbo'shi	88,1	123,3
Jalaquduq	69,2	101,4
Izboskan	35,9	138,4
Ulug'nor	72,7	101,4
Qo'rg'ontepa	175,7	143,2
Asaka	291,6	128,4
Marhamat	125,3	115,1
Shahrixon	455,0	111,1
Paxtaobod	168,2	90,5
Xo'jaobod	93,8	98,0


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-avgust)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning
yanvar-avgust oylarida
uyushmagan savdo tovar
aylanmasi

2 403,3 mlrd. so'mni tashkil etib,
2024- yilning yanvar-avgust
oylariga nisbatan 113,6 % ni
tashkil etdi. Shu jumladan, 12-
bozor va
12-bozor (chorva) (oylik)
kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan,
dehqon bozorlarida savdo faoliyati
bilan shug'ullanuvchi jismoniy
shaxslarning uy xo'jaliklarida
yetishtirgan mahsulotlarini sotish
hajmi 1 066,3 mlrd. so'mni
(118,1 %), chorva mollari va
parrandalar sotuvchi jismoniy
shaxslarning savdo aylanmasi
hajmi 1 337,3 mlrd. so'mni tashkil
etdi (128,1 %).

2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 066,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (414,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 414,1 mlrd. so'm  38,8 %	Non va non mahsulotlari 273,4 mlrd. so'm  25,6 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 118,0 mlrd. so'm  11,1 %
Tovuq go'shti 32,9 mlrd. so'm  3,1 %	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 54,4 mlrd. so'm  5,1 %	Tuxum 37,3 mlrd. so'm  3,5 %
Ziravorlar 39,2 mlrd. so'm  3,7 %	Sut va sut mahsulotlari 23,9 mlrd. so'm  2,2 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak 6,4 mlrd. so'm  0,6 %
Tuzlamalar 21,6 mlrd. so'm  2,0 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 16,5 mlrd. so'm  1,5 %	Nooziq-ovqat tovarlar 28,3 mlrd. so'm 2,7 %

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 337,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 123,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 194,9 mlrd. so'mni, otlar – 11,6 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 7,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 696,4 mlrd. so'm  52,1 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 158,8 mlrd. so'm  11,9 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 268,5 mlrd. so'm  20,1%
Qo'ylar 190,8 mlrd. so'm  14,3 %	Otlar 11,6 mlrd. so'm  0,9 %	Echkilar 4,1 mlrd. so'm  0,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 5,0 mlrd. so'm  0,4 %	Tovuqlar 1,5 mlrd. so'm  0,1 %	Quyonlar 0,4 mlrd. so'm  0,03 %
Qushlar 0,3 mlrd. so'm  0,02%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 255 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 253 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	281,1	109,2
Andijon sh.	137,1	109,3
Xonobod sh.	2,6	108,8
tumanlar :		
Oltinko'l	13,3	106,3
Andijon	21,0	106,6
Baliqchi	3,6	106,9
Bo'ston	1,5	104,7
Buloqboshi	2,8	108,3
Jalaquduq	3,7	108,2
Izboskan	8,7	106,9
Ulug'nor	4,2	106,7
Qo'rg'ontepa	12,7	108,0
Asaka	12,1	109,0
Marhamat	6,5	105,2
Shahrixon	35,8	114,8
Paxtaobod	9,6	107,8
Xo'jaobod	5,8	109,2

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 281,1 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Andijon viloyati	3 991,3	100,0
Andijon sh.	2 867,6	71,8
Xonobod sh.	0,52	0,01
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	324,6	8,1
Andijon	95,1	2,4
Baliqchi	15,1	0,4
Bo'ston	0,57	0,01
Buloqboshi	0,6	0,02
Jalaquduq	1,5	0,0
Izboskan	7,9	0,2
Ulug'nor	0,59	0,01
Qo'rg'ontepa	4,2	0,1
Asaka	347,9	8,7
Marhamat	3,8	0,1
Shahrixon	11,3	0,3
Paxtaobod	0,8	0,0
Xo'jaobod	309,1	7,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (2 867,6 mlrd. so'm), Oltinko'l (324,6 mlrd. so'm), Asaka (347,9 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (309,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 991,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,6 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 518,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 41,8 % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 2 472,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 143,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 386,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 103,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,7 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 679 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 648 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (34,9 m.), Marhamat (3,4 m.) va Ulug'nor (143,1 m.), tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	5 386,9	110,3
Andijon sh.	2 567,2	112,9
Xonobod sh.	63,2	112,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	182,5	98,1
Andijon	425,7	94,4
Baliqchi	436,0	111,7
Bo'ston	40,1	104,2
Buloqbo'shi	89,9	112,6
Jalaquduq	46,7	100,6
Izboskan	230,1	113,0
Ulug'nor	79,7	106,8
Qo'rg'ontepa	152,5	115,3
Asaka	175,1	111,4
Marhamat	60,7	124,7
Shahrixon	608,5	112,6
Paxtaobod	89,9	109,2
Xo'jaobod	139,1	112,3